I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023- yil 1- iyul holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 28 049 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 22 239 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 79,3 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahar (22,2 %), Karmana (15,6 %), Qiziltepa (13,1 %) va Xatirchi (11,7 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**28 049**	**100,0**	**22 239**	**100,0**
Navoiy sh.	6 223	22,2	4 838	21,8
Zarafshon sh.	1 966	7,0	1 696	7,6
G‘ozg‘on sh.	423	1,5	385	1,7
Karmana t.	4 369	15,6	3 190	14,3
Konimex t.	1 219	4,3	1 023	4,6
Qiziltepa t.	3 675	13,1	2 985	13,4
Navbahor t.	2 953	10,5	2 312	10,4
Nurota t.	1 951	7,0	1 552	7,0
Tomdi t.	796	2,8	641	2,9
Uchquduq t.	1 207	4,3	915	4,1
Xatirchi t.	3 267	11,7	2 702	12,2

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning savdo (35,4 %), sanoat (15,3 %), qurilish (6,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,2 %) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023- yil 1- iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**28 049**	**100,0**	**22 239**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 417	12,2	2 560	11,5
sanoat	4 289	15,3	3 211	14,4
qurilish	1 914	6,8	1 424	6,4
savdo	9 900	35,3	8 182	36,8
tashish va saqlash	915	3,3	774	3,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 695	6,0	1 261	5,7
axborot va aloqa	335	1,1	258	1,1
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	395	1,4	351	1,6
boshqa turlari	5 189	18,5	4 218	19,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2023- yil 1- iyul holatiga)

11,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

14,4 %

Sanoat

6,4 %

Qurilish

36,7 %

Savdo

3,5 %

Tashish va saqlash

5,7 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,1 %

Axborot va aloqa

1,6%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

19,0 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 79,3 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 20,7 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2023- yil 1- iyul holatiga 20 038 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 11 291 ta, xususiy korxonalar 5 036 ta, oilaviy korxonalar – 3 529 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 16 ta, unitar korxona 47 tani va 119 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2023- yil yanvar- iyun oylarida jami 2 260 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,2 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (371 ta), Karmana (334 ta), Qiziltepa (284 ta), Xatirchi (275 ta) tumanlariga, eng kami esa Tomdi (89 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (51 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 36,7 foiz, sanoatda 18,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 15,9 foiz, qurilish va tashish hamda saqlashda 4,4 foizni tashkil etdi.

2023- yil 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 19 942 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 foizga kamaydi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 228 tasi (jami sub‘ektlarning 21,2 %) Navoiy shahri, 2 921 tasi (14,6 %) Karmana, 2 742 tasi (13,7 %) Qiziltepa, 2 411 tasi (12,1 %) Xatirchi hamda 2 131 tasi (10,7 %), Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 558 tasi (2,6 %) Tomdi, 885 tasi (4,4 %) Konimex tumanlari, 352 tasi (1,8 %) G‘ozg‘on shahar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)
(2023- yil 1- iyul holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yuritmayotgan*	*2023- yil yanvar-iyun oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2023- yil yanvar- iyun oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**25 584**	**19 942**	**5 642**	**2 201**	**684**	**18,8**
Navoiy sh.	5 536	4 228	1 308	354	84	26,9
Zarafshon sh.	1 819	1 556	263	167	118	17,9
G‘ozg‘on sh.	389	352	37	51	8	38,7
Karmana t.	4 080	2 921	1 159	319	65	21,4
Konimex t.	1 076	885	191	142	48	23,7
Qiziltepa t.	3 422	2 742	680	278	72	17,2
Navbahor t.	2 758	2 131	627	221	45	17,8
Nurota t.	1 757	1 363	394	145	36	15,4
Tomdi t.	705	558	147	86	21	35,3
Uchquduq t.	1 080	795	285	166	55	20,2
Xatirchi t.	2 962	2 411	551	272	132	11,4

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- iyul holatiga		*2023- yil 1- iyul holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**21 629**	**100,0**	**19 942**	**100,0**
Navoiy sh.	4 814	22,3	4 228	21,2
Zarafshon sh.	1 591	7,4	1 556	7,8
G‘ozg‘on sh.	296	1,4	352	1,8
Konimex t.	819	3,8	885	4,4

	2022- yil 1- iyul holatiga		2023- yil 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	2 905	13,3	2 742	13,8
Navbahor t.	2 290	10,6	2 131	10,7
Karmana t.	3 532	16,3	2 921	14,6
Nurota t.	1 445	6,7	1 363	6,8
Tomdi t.	517	2,4	558	2,8
Uchquduq t.	827	3,8	795	4,0
Xatirchi t.	2 593	11,9	2 411	12,2

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 19 942 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 8 164 tasi (40,9 %) – savdoda, 3 186 tasi (16,0 %) - sanoatda, 2 526 tasi (12,7 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 416 tasi (7,1 %) - qurilishda, 1 257 tasi (6,3 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 765 tasi (3,8 %) - tashish va saqlashda, 283 tasi (1,4 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 250 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 095 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- iyul holatiga ko‘ra) birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,1 foizni (1 308 ta), Karmanada 4,5 foizni (1 159 ta), Navbahor tumanida 2,5 foizni (627 ta), Xatirchida 2,2 foizni (551 ta), Konimexda 0,7 foizni (191 ta) va Tomdi tumanida 0,6 foizni (147 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 684 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan savdo 286 ta (41,8 %), sanoat 12 ta (18,6 %), qurilish 41 ta (6,0 %) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 73 ta (10,7 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 206 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 106 tasi qo‘shma korxonalar, 100 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- iyul holatiga)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**206**	**106**	**100**
Navoiy sh.	55	38	17
Zarafshon sh.	14	7	7
G‘ozg‘on sh.	5	3	2
Konimex t.	10	5	5
Qiziltepa t.	15	7	8
Navbahor t.	7	3	4

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Karmana t.	61	23	38
Nurota t.	15	10	5
Tomdi t.	8	6	2
Uchquduq t.	5	1	4
Xatirchi t.	11	3	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 55 ta (26,7 %) va Karmana 61 ta (29,6 %) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahriga 5 ta (2,4 %), Uchquduq tumaniga 5 ta (2,4 %), Tomdi tumaniga 8 ta (3,9 %), Konimex tumaniga 10 ta (4,9 %) va Xatirchi tumaniga 11 tadan (5,3 %) to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- iyul holatiga)

	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	**206**	**100,0**
Navoiy sh.	55	26,7
Zarafshon sh.	14	6,8
G‘ozg‘on sh.	5	2,4
Konimex t.	10	4,9
Qiziltepa t.	15	7,3
Navbahor t.	7	3,4
Karmana t.	61	29,6
Nurota t.	15	7,3
Tomdi t.	8	3,9
Uchquduq t.	5	2,4
Xatirchi t.	11	5,3

Faoliyat ko‘rsatayotgan 206 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 112 tasi (54,4 %) sanoat, 38 tasi (18,4 %) savdo, 17 tasi (8,3 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 15 tasi (7,3 %) qurilishda, 4 tasi (1,9 %) tashish va saqlash, 2 tasi (1,0 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 3 tasi (1,5 %) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 2 tasi (1,0 %) axborot va aloqa, 13 tasi (6,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2023- yil 1- iyul holatiga)

	birlik	***Jamiga nisbatan, % da***
Jami	**206**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	112	54,4
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	17	8,2
qurilish	15	7,3
savdo	38	18,4
tashish va saqlash	4	1,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2	1,0
Axborot va aloqa	2	1,0
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3	1,5
boshqa turlari	13	6,3

2023- yil yanvar- iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi 6 ta, Avstraliya 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 3 ta, Eron Islom Respublikasi 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Hindiston Respublikalariga 1 tadan to‘g‘ri keladi.

19 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Karmana (6 ta) tuman, Navoiy (6 ta) shahar, Xatirchi tuman, Nurota tuman va G‘ozg‘on shahar (2 ta) hamda Konimex (1 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**19**	**100,0**
Navoiy sh.	6	31,6
Zarafshon sh.	-	-
G‘ozg‘on sh.	2	10,5
Konimex t.	1	5,3
Qiziltepa t.	-	-
Navbahor t.	-	-
Karmana t.	6	31,6
Nurota t.	2	10,5
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	2	10,5

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 9 ta, savdoda 6 ta, qishloq xo‘jaligida 2 ta tashish saqlashda 1 ta va boshqa tarmoqlarda 1 tadan.

2023- yil 1- iyul holatiga 93 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (38 ta), Karmana tumani (25 ta), Nurota (9 ta), Zarafshon shahri, Navbahor, Uchquduq, Xatirchi tumanida (4 tadan), Qiziltepa, Konimex tumanlarida (2 tadan) va Tomdi tumani (1 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyul holatiga 4 508 tani tashkil etib, ulardan 3 529 tasi yoki 78,3 foizi faoliyat yuritmoqda.

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foizga yoki 582 taga kamaydi.